

ATOQLI OTLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZ BERADIGAN GRAMMATIK XATOLAR

Qutfiddinov Xushnudjon Abdumutalifovich

Namangan davlat universiteti Akademik litseyi

+998934024882, qutfiddinovxushnud20@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20226659>

Annotatsiya: Ushbu maqolada inglizcha-o'zbekcha ismlarni biridan boshqasiga o'girishda sodir bo'ladigan grammatik xatolar haqida so'z boradi.

Abstract: This article gives information about grammatical errors that occur when converting English-Uzbek names from one to another.

Аннотация: В данной статье рассказывается о грамматических ошибках, возникающих при преобразовании англо-узбекских имен из одного в другое.

Kalit so'zlar: atoqli otlar, tarjima, grammatik xato, tillar, botlar va saytlar.

Key words: Proper noun, translation, grammatical error, languages, bot and sites.

Ключевые слова: существительное, перевод, грамматическая ошибка, бот и сайт.

Kirish. Tarjima, grammatika chuqur tushunish va bilishni talab qiladi. Bilamizki, atoqli otlar, ayniqsa, ismlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda har doim ham kutilgan natijani olmasligimiz aniq. Ba'zi so'zlar boshqa tilga aynan aslidek tarjima qilinmasligi mumkin. Misol qilib, o'zbek tilidagi "Guli" ismini olaylik, bu ism elektron tarjimonlarda "Flower" deb tarjima qilinadi. Agar biz ba'zi ismlar boshqa tilga aslidek tarjima qilinishini yoki umuman tarjima qilib bo'lmasligini bilmasak, bunday xatolarni oxiri ko'rinmaydi.

Atoqli otlarni tarjima qilish jarayonida ko'plab xatolar yuz berishi mumkin. Bunday xatolar asarning mazmuniga, milliy ruhiga va matnning aniqligiga salbiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, inson ismlari, geografik nomlar, tashkilotlar, tarixiy joylar va madaniy tushunchalarni noto'g'ri tarjima qilish o'quvchini chalg'itadi hamda asl matndagi ma'noni yo'qotib qo'yadi. Ba'zan tarjimon atoqli otni to'liq tarjima qilib yuboradi, holbuki ayrim nomlar asl shaklida saqlanishi kerak bo'ladi. Yoki aksincha, transliteratsiya noto'g'ri qo'llanib, talaffuz va yozilishda xatolar paydo bo'ladi.

Shuningdek, turli tillardagi madaniy farqlar ham atoqli otlarni tarjima qilishni murakkablashtiradi. Bir tilda oddiy bo'lgan nom boshqa tilda boshqacha ma'no berishi yoki umuman tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shu sababli tarjimon nafaqat tilni, balki tarix, geografiya va madaniyatni ham yaxshi bilishi zarur. Atoqli otlarni tarjima qilishdagi e'tiborsizlik matnning ishonchliligini pasaytiradi va badiiy asarning ta'sirchanligini kamaytiradi.

Atoqli otlarni tarjima qilish badiiy tarjimaning eng murakkab masalalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsiy ismlarga tegishli asosiy qoida shundaki, ular tarjimasiz qoldirilgan ya'ni ularni asl ma'nosida tarjima qilish imkonsiz. Muammo shundaki, tillar bir xil alifboga ega bo'lsa ham, harflarning talaffuzida farqlanadi. Bu unlilar va yarim unlilar uchun xos. Masalan, o'zbek tilida e unlisi ingliz tilida i kabi talaffuz qilinadi ya'ni Peter ismi o'zbek tiliga Piter deb tarjima qilinadi bunda e iga almashadi va e emas i deb talaffuz qilinadi. Nafaqat unlilar balki undoshlar ham ba'zi hollarda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Jumladan, o'zbek tilida Q harfi bilan boshlanuvchi ismlarni K harfi bilan talaffuz qilinishi (Quadrat- Kudrat) yoki X harfi qatnashgan ismlarda ingliz tilida qattiq x harfi yo'qligi sababli xning kh ga almashishi (Shaxnoza-Shakhnoza) bunga yorqin misol bo'la oladi. Qolaversa, yuqorida aytib o'tilganidek,

ba’zi ismlarni turli tillarga tarjima qilib bo’lmaydi. Olmos, Guli, Xushnud, Xumora va shu kabi ismlarning tarjimalari asli kabi atoqli etmas balki turdosh ot sifatida tarjima qilinib qoladi. Tillar o’rtasidagi bunday farqlar tarjimani cheklab qo’ygan. Elektron tarjima botlar orqali tarjima qilingan ismlarni insonlar to’g’ri bo’ladi deb hisoblashadi. Biroq, malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan tarjimalar ham o’z imkoniyatlari bilan chegaralangan bo’lsa, qanday qilib turli xil tarjima botlari yoki saytlar bunday ijodiy vazifalarda yaxshiroq bo’lishi mumkin? Arab, yapon va xitoy tillari yer yuzidagi eng qiyin tillardan biridir. Shu sababli ularni nafaqat o’rganish, balki tarjima qilish ham juda qiyin. Ismlarni arab, yapon va xitoy tillaridan ingliz tiliga tarjima qilish unchalik oson emas. Ushbu uch tildagi ismlar ko’pincha chuqur ma’noga ega va ismning bir qismini o’zgartirish ismning ma’nosini ham o’zgartirishi mumkin.[1] Adabiyot asarlarida qahramonlarning ismlari ba’zan ularning taqdiri yoki kitobdagi asl maqsadini aks ettiradi, lekin ingliz tiliga tarjima qilinganda ular asl ma’nosini, ba’zan esa butun ma’nosini yo’qotadi. Agar ism hikoyaning markazida bo’lsa, uning ma’nosini yo’qotish butun kitobga ta’sir qilishi mumkin. Ismimizni o’z tilimizda va boshqa xalq tilida to’g’ri aytilishini istar ekanmiz, keling, yaxshisi, o’zga xalqlar ism-shariflarini ham tilimiz imkoniyatlaridai kelib chiqib asliyatcha saqlashga harakat qilaylik. Masalan, nemischa Reinhold (Raynhold) – “Azizlarning azizi” demakdir. O’zbek tilidagi “Azizxo’ja” ismi shu niyatda qo’yilsa kerak. Bu ismni agar Rayngold deb o’girsak – “sof oltin” ma’nosi paydo bo’ladi. Tarjimalarda esa ko’pincha “Reyngold” shakliga duch kelamiz, ya’ni oltinning sofliги yo’qolib, azizlik tillaga aylanib qoladi va ism butunlay o’zgaradi, ma’nosiz bo’lib qoladi.[2] Biz bilamizki, tegishli nomlarning tarjimasi haqida mukammal nazariyalar mavjud emas, chunki bir qismning yo’qolishi ism ma’nosini o’zgartirib yuboradi. Badiiy tarjimaga kelsak, shaxs nomlari tarjimasi eng murakkab masalalardan biri sifatida namoyon bo’ladi. Ballard (1993) quyidagi g’oyani ilgari suradi: Shaxs nomlari hech qanday holatda tarjima qilinmasligi kerak. Ular tarjimalar paytidagidek saqlanadigan kam sonli narsalardan biridir. Hujjat boshqa tilga tarjima qilinayotgan bo’lsa, nomlar bilan birga faxriy yorliqlar qo’shilishi mumkin, ammo ismlarning o’zi hech qanday holatda o’zgartirilmasligi kerak.[3]

Zoonimlar yoki hayvonlarning nomlari bu hayvonlarga berilgan ismlar, ular boshqa so’zlar bilan aytganda taxalluslardir. Bunday ismlar, asosan, mushuklar, itlar, kalamushlar, qushlar va boshqalar kabi uy hayvonlariga yoki jamiyatda mashhur hayvonlarga (hayvonot bog’lari, sirk va boshqalar) beriladi. Zoonimlarning ikki sinfi mavjud: umumiy va individual. Umumiy zoonimlarga hayvon turlarini bildiruvchi nomlar kiradi. Misol: Pluton, Teddy, Maks, Bella (itlar uchun). Annabelle, Clarabelle, Betta (sigirlar uchun), Leo, Jek, Olive, Simba (mushuklar uchun), Rio, Champ, Trigger (otlar uchun). Bunday atoqli otlar ma’lum bir turning barcha a’zolari uchun ishlatiladi va ularning boshqa tillarda ekvivalenti borligi aniq. Ammo individual zoonimlar ma’lum bir uy hayvoni yoki hayvonga tegishli, shuning uchun biz alohida hayvonlarning taxalluslari ustida ishlaganda transkripsiya yoki transliteratsiyadan foydalangan ma’qul. Misol: Reks Rex, Simba Simba, Timon Timon va boshqalar. [4]

Irlandiyalik yozuvchi Charlz Liver birinchi bo’lib jigar go’shtini tayyorladi va uni o’zining nomi bilan ataydi, xuddi ingliz lord sendvichning nomi o’zi taqdim etgan **sandwich** - ikkita bo’lak non, ular orasiga qandaydir gazak qo’shilganligi sababli nomlangan. Angliya grafi Sendvich qimor o’ynashni shunchalik yaxshi ko’rar ediki, u hatto ovqatga ham chiqishni xohlamasdi. U graf nomi bilan atalgan sovuq go’sht bilan non bo’laklarini berishni buyurdi. Shunday qilib, 1762 yilda **sandwich** tug’ildi. Nemislar uning yangi nomini - " **sandwich** " (yog

'+ non) deb topishdi va sariyog'ga turli xil kolbasa qo'yishdi. Va frantsuzlar plomba sifatida sosli pate qo'shdilar va issiq sendvichlarni ixtiro qildilar. Gollandiyaliklar har xil plombalarni uzun rulon ichiga qo'yishdi. Evropada bunday ko'p qatlamli sendvich "**Dutch**", ya'ni Gollandiyalik deb ataladi. Va ba'zi sendvichlar allaqachon qat'iy retsept bo'yicha tayyorlana boshlagan. Misol uchun, "**club**" sendvichi uchta bo'lak non va ularning orasidagi ikki xil gazakdan iborat. Shunday qilib, "**sandwich**" (inglizlar buni hali ham shunday deb atashadi) eng ommaviy va mashhur taomga aylandi. Restoranlarga bormasdan shaharda tez ovqatlanish imkoniyati juda ko'p odamlar uchun jozibador bo'lib chiqdi va bu talab 1955 yil 15 aprelda Amerika Qo'shma Shtatlarida tashkil etilgan McDonald's tomonidan to'liq taxmin qilingan va hal qilingan. Aytish mumkinki, har bir xalq o'ziga xos sendvich turini o'ylab topdi va McDonald's kompaniyasi ularning barchasini birlashtirdi va hatto o'zining Bik-Mac sendvichi Big Macni ixtiro qildi. Bu go'sht, salat, mayonez bilan ko'p qatlamli tuzilishni anglatadi. Kompaniya qisqa vaqt ichida dunyoning ko'plab mamlakatlarida umumiy ovqatlanish sohasida yetakchiga aylandi. [5]

Xulosa qilib aytganda, tarjimonlik ancha yillardan beri eng murakkab jarayonlarda biri bo'lib kelgan. Shuningdek, turli xil shaxslarning ismlarini tarjima qilish ham oson emas. Shunday ekan, biz aytishimiz mumkinki, ismlar tarjimasida ma'lum bir nazariya izchillik mavjud emas. Tarjimon bu jarayonda aniqlik, ehtiyotkorlik va til me'yorlariga qat'iy rioya qilishi kerak. To'g'ri tarjima qilingan atoqli otlar matnning mazmunini boyitadi, o'quvchiga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi va asl asarning milliy hamda madaniy xususiyatlarini saqlab qolishga yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ismlarni turli tillarga tarjima qilib bo'lmaydi. Lekin bunga bir nechta istisnolar mavjud. Agar nom turli tillarda bir nechta imlo farqlari bilan mavjud bo'lsa, u kitob yoki filmda bo'lsagina tarjima qilinishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Difficulties in Translation with Names in Arabic, Japanese, Chinese Languages into English. Murojaat qilingan sana: 06.04.23. manba: <https://www.universal-translation-services.com/difficulties-in-translation-with-names-into-english/>
2. "Nomlarning nomunosib tarjimasini". X.Rahimov. Murojaat qilingan sana: 07.04.23. manba: <https://sof.uz/uz/post/nomlarning-nomunosib-tarjimasini>
3. THE PROBLEM OF THE TRANSLATION OF PROPER NAMES IN HARRY POTTER AND THE LORD OF THE RINGS1. Murojaat qilingan sana: 07.04.23 manba:<https://dialnet.unirioja.es/descarga/articulo/974490.pdf>
4. Ingliz va o'zbek tilidagi atoqli otlarning boshqa tillariga tarjima qilish jarayoni. SH.Primkulovna manba: <https://pedagoglar.org/04/article/view/712>
5. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ATOQLI OTLARNING TURDOSH OTGA O'TISH IMKONIYATLARI N.H.Aliyevna, Z.Mirzarahimova manba: <https://intereuroconf.com/index.php/APSEFMCH/article/view/826>